Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







MUSIQA TA’LIMI YO‘NALISHI TALABALARIDA CHOLG‘U IJROCHILIGI VOSITASIDA ESTETIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK JIHATLARI

Samatova Dilnoza Salaidinovna
Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining estetik tafakkurini cholg‘u ijrochiligi orqali rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. “Estetika”, “tafakkur”, “estetik tafakkur”, “estetik did” va “musiqiy did” tushunchalarining mohiyati tahlil qilingan. Estetik tafakkurni shakllantiruvchi pedagogik jihatlar aniqlangan, olimlarning qarashlari umumlashtirilgan hamda oliy pedagogik ta’limda ushbu jarayonni takomillashtirish yo‘nalishlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: estetik tafakkur, estetik did, musiqiy did, cholg‘u ijrochiligi, musiqa ta’limi, badiiy-estetik kompetentlik, kasbiy tayyorgarlik, estetik tarbiya.

Аннотация. В статье раскрываются теоретико-методологические основы развития эстетического мышления будущих учителей музыки посредством инструментального исполнительства. Проанализирована сущность понятий «эстетика», «мышление», «эстетическое мышление», «эстетический вкус» и «музыкальный вкус». Определены педагогические аспекты, формирующие эстетическое мышление, обобщены взгляды ученых, обоснованы направления совершенствования этого процесса в высшем педагогическом образовании.

Ключевые слова: эстетическое мышление, эстетический вкус, музыкальный вкус, инструментальное исполнительство, музыкальное образование, художественно-эстетическая компетентность, профессиональная подготовка, эстетическое воспитание.

Abstract. The article outlines the theoretical and methodological foundations of developing aesthetic thinking in future music teachers through instrumental performance. The essence of the concepts “aesthetics”, “thinking”, “aesthetic thinking” ,“aesthetic taste” and “musical taste” is analyzed. The pedagogical aspects that shape aesthetic thinking are identified, scholars' views are summarized, and directions for improving this process in higher pedagogical education are substantiated.

Keywords: aesthetic thinking, aesthetic taste, musical taste, instrumental performance, music education, artistic and aesthetic competence, professional training, aesthetic education.

Kirish. O‘zbekistonda ta’lim tizimini, jumladan musiqa ta’limini takomillashtirish va zamonaviy bilim hamda ko‘nikmalarga ega kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. Bu yo‘nalish bir qator me’yoriy hujjatlarda mustahkamlangan: “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







Farmon [1], “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-son Qaror [2] hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati fanini o‘qitishni takomillashtirishga qaratilgan PQ-391-son Qaror [3]. Mazkur hujjatlar oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak musiqa o‘qituvchisini kasbiy jihatdan yetuk, ijodkor va estetik tafakkuri rivojlangan pedagog sifatida tarbiyalash zarurligini ko‘rsatadi.

Asosiy qism. Musiqa ta’limi yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalar kelgusida umumta’lim maktablarida yosh avlodga musiqiy-estetik tarbiya beradigan mutaxassislardir. Shuning uchun ulardan nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy ijrochilik malakasi, yuksak musiqiy idrok, badiiy did va estetik tafakkur talab etiladi. O‘qituvchi faoliyatining samaradorligi uning musiqiy asarni qanchalik chuqur anglashi, ijro eta olishi va badiiy mazmunini o‘quvchiga yetkaza olishiga bevosita bog‘liq.

Amaliyotda ayrim talabalar cholg‘u ijrochiligida yetarli tajribaga ega bo‘lmagani bois musiqa darslarini ijodiy tashkil etishda qiyinchilikka uchraydi. Maktabda o‘qituvchi cholg‘u asboblaridan mahorat bilan foydalanishi, kuy va qo‘shiqlarni jonli ijroda yetkazishi hamda musiqiy obrazlar mazmunini ochib berishi lozim. Demak, talabaning musiqiy idroki, badiiy didi, ijodiy tafakkuri, hissiy munosabati va kasbiy kompetensiyalari uyg‘un rivojlanishi kerak.

“Estetika” atamasi qadimgi yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “his”, “tuyg‘u” ma’nolarini anglatadi va insonning borliqni hissiy idrok etishi hamda tabiat va san’atdagi go‘zallikni anglash jarayonlarini o‘rganadi. Uni fan atamasi sifatida ilmiy muomalaga nemis faylasufi A.Baumgarten (1714–1762) kiritgan. Estetikaga turli davr mutafakkirlari turlicha yondashgan: Aristotel uni tabiat va san’atdagi go‘zallik qonuniyatlarini o‘rganuvchi bilim sifatida talqin qilgan, Platon san’atning jamiyat hayotidagi o‘rniga urg‘u bergan, Gegel esa uni san’atdagi go‘zallik haqidagi fan deb hisoblagan.

Pedagog olim Sh.Mustafayev globallashuv sharoitida badiiy-estetik mahsulotlar iste’mol tovariga aylanib borayotganini ta’kidlab, har bir talabada ma’naviy iste’mol madaniyatini tarbiyalash zarurligini asoslaydi [6]. Bu qarash musiqa ta’limi talabalaridan nafaqat yuqori saviyadagi asarlarni ijro etish va tinglashni, balki ularni targ‘ib qila olish va mazmunini tushuntirib berish qobiliyatini ham talab qiladi. F.N.Xalilov cholg‘u musiqasini idrok etishda tinglovchining nafaqat kuy ta’siriga berilishi, balki asar mazmunini anglashi va qayta yaratishi ham zarurligini qayd etadi [4]. Bundan ijro davomida talabada texnika bilan birga badiiy mohiyatni anglash va uni hissiy-estetik talqin qilish qobiliyati ham rivojlanishi kelib chiqadi.

Milliy meros masalasiga to‘xtalgan E.M.Fayzullayev bo‘lajak o‘qituvchilarni maqom san’ati, mumtoz ashulalar va milliy cholg‘u ijrochiligi namunalari bilan chuqur tanishtirish ularda badiiy did, estetik qarash va musiqiy tafakkurni shakllantirishini ta’kidlaydi [5]. D.Mardonova esa badiiy-estetik kompetentlikni shakllantirishning ilmiy-pedagogik va ijtimoiy ahamiyatini ochib berib, urf-odatlar, milliy-madaniy qadriyatlar va ma’naviy qadriyatlar shaxsning estetik ongi va tafakkurini shakllantiruvchi omillar ekanini ko‘rsatgan. Uning fikricha, badiiy-estetik kompetentlik rivojlanishi natijasida shaxsning estetik xotirasi boyiydi, o‘zligini anglash darajasi ortadi va mustaqil fikrlovchi yangi avlod shakllanadi.

Oliy pedagogik musiqa ta’limida “cholg‘u ijrochiligi”, “qo‘shimcha cholg‘u”, “orkestr sinfi” va “ansambl sinfi” kabi fanlar talabalarning ijrochilik mahoratini oshirish, asarlarni tahlil qilish va badiiy talqin etish ko‘nikmalarini egallashida asosiy

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







vosita bo‘ladi. Bu fanlarda estetik tafakkurni rivojlantirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: turli janr va uslubdagi asarlar repertuarini keng qamrab olish; milliy cholg‘u va maqom merosiga tayanish; asarni ijro etishdan oldin uning badiiy obrazini tahlil qilish; talabaning individual qobiliyatini inobatga olib vazifalarni farqlash; ijroni jamoaviy muhokama qilish orqali tanqidiy va estetik baholash madaniyatini shakllantirish.

Xulosa. Tadqiqot natijalari musiqa ta’limi yo‘nalishi talabalarida estetik tafakkurni rivojlantirishda cholg‘u ijrochiligi yetakchi pedagogik vosita ekanini ko‘rsatadi. Estetik tafakkur, estetik did va musiqiy did o‘zaro uzviy bog‘liq tushunchalar bo‘lib, ular musiqachi shaxsining ijodiy salohiyatini belgilaydi. Bu jarayon estetik, ijodiy, hissiy, individual va tahliliy jihatlarning birligida samarali kechadi. Olimlarning qarashlari estetik tafakkurning rivoji ichki motivatsiya, milliy qadriyatlarga tayanish, badiiy-estetik kompetentlik va ma’naviy iste’mol madaniyati bilan bog‘liqligini tasdiqlaydi. Shu bois oliy pedagogik ta’limda cholg‘u ijrochiligi mashg‘ulotlarini estetik tafakkurni shakllantirishga yo‘naltirish, milliy musiqiy merosni o‘quv jarayoniga keng joriy etish va talabalarning kasbiy-ijodiy tayyorgarligini kompleks yondashuv asosida takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-son Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 15 noyabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-391-son Qarori.
4. Xalilov F.N. Didakticheskiye osnovi instrumentalno-ispolnitelskoy podgotovki budushix uchiteley muziki. Diss-yaa dokt. ped. nauk. Tashkent, 2006. – 266 s.
5. Mustafayev Sh.N. Globallashuv sharoitida talabalarni g‘oyaviy-estetik tarbiyalash texnologiyasi (Badiiy to‘garaklar misolida). P.f.f.d (PhD) diss. Samarqand, 2018. – 143 b.
6. Fayzullayev E.M. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (o‘zbek mumtoz musiqasi misolida). P.f.n. diss-Y. Toshkent, 2010. – 163 b.